



BUXORO GASTRONOMIK TURIZMINING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI

Adham Ashirov Azimbayevich
Osiyo Xalqaro Universiteti Ilmiy rahbar
Alimova Difuza Obidovna
Osiyo Xalqaro Universiteti Magistr

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro vohasida gastronomik turizmning shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va nazariy asoslari yoritiladi. Buxoro milliy taomlarining turizm rivojidadagi o'rni, madaniy meros bilan uzviy bog'liqligi hamda gastronomik turizmning hududiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi.*

Tayanch iboralar: *gastronomik turizm, turizm nazariyasi, Buxoro milliy ta'omlari, madaniy meros, ananaviy oshxona ...*

Buxoro Gastronomiyasi bu Buxoroni sevish uchun yana bir sabab

Kirish. Buxoro shahri qadimiy Ipak yo'li savdo yo'llarining markazlaridan biri bo'lgan va uning tarixi ko'plab madaniy, iqtisodiy va gastronomik merosga boy. Gastronomik turizm – bu sayyohlarning mahalliy oshxona va taomlarni tajriba qilish orqali mintaqaning madaniy va tarixiy merosi bilan tanishishi jarayoni. Buxoroda gastronomik turizm ananaviy mehnat va mehmondo'stlik qadriyalariga asoslangan bo'lib, u shahar tarixining turizm sohasida ilmiy va amaliy rivojlanishini belgilaydi.

Gastronomik turizmning nazariy asoslarini tahlil qilish, nafaqat sayyohlikni rivojlantirish, balki Buxoro shahrining madaniy merosini saqlash va keng targ'ib qilishga yordam beradi. Shu sababli, Buxoro gastronomik turizmi tarixiy va nazariy jihatdan o'rganilishi lozim bo'lgan ilmiy mavzular qatoriga kiradi. Gastronomik turizm tushunchasining nazariy asoslari XX asrning oxirlarida turizmshunoslikda keng qo'llana boshlandi. Uning nazariy asoslari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan- madaniyat va turizm uyg'unligi. Bunda taomlar mintaqaning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

Ikkinchidan-ekonomik aspect. Bu gastronomik turizm mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shadi. Restoranlar, kafelar va festrivallar orqali daromad manbaini yaratadi.

Uchinchidan –tarixiy ildizlar. Gastronomik meros o'tmishdagi taomlar va ularni tayyorlash usullari hamda mehmondo'stlik ananalari bilan bog'liq.

To'rtinchidan –madaniy brend sifatida.Buxoro vohasi sayyohlarni jalb qilish va mintaqaning global maydondagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi.

Buxoro gastronomik turizm tarixini davrlar asosida o'rganadigan bo'lsak;

- Qadimiy davrda- Buxoro shahrining gastronomik ananalari qadimiy Ipak yo'li savdogarlari va sayyohlarining taom madaniyati bilan chambarchas bog'liq.Tarixiy manbalarga ko'ra, shahar aholisi mehmondo'stlik va oshpazlik san'ati bilan mashhur bo'lgan. Mahalliy oshxonada palov, somsa, sho'rva, sumalak ,halim, o'moch kabi taomlar tayyorlangan.



- O'rta asrlar-O'rta asrlar Buxoro uchun savdo, ilm-fan va madaniyatning gullab-yashash davri bo'lgan. Bu davrda gastronomik meros yanada rivojlandi, hamda mehmondo'stlik qadriyatlari turizm elementlariga aylana boshladi. Shahardagi karvonsaroylar sayyohlarga mahalliy taomlarni tatib ko'rish imkonini bergan.

- Sovet davrida –Buxoro gastronomik turizmning rasmiy shakllanishi cheklangan bo'lsa-da, milliy taomlar va oshxonachilik ananalari saqlanib qoldi. Mehmondo'stlik va mahalliy taomlarni tayyorlash odatlari oilalar va kichik tadbirkorlar tomonidan davom ettiriladi.

- Mustaqillik davri- 1991-yildan keyin Buxoroda gastronomik turizm faol rivojlandi. Festival va ko'rgazmalar, shuningdek, maxsus gastronomik marshrutlar tashlik etiladi. Mahalliy oshxona brendlari va turistik xizmatlar iqtisodiy jihatdan ahamiyatli bo'ldi va Buxoro xalqaro gastronomik turizmi yo'nalishiga kirib bordi.

Nazariy jihaddan yondashadigan bo'lsak, Buxoro gastronomik turizmini o'rganishda quyidagicha yondashsak mavzuni aniq tahlil qila olamiz.

❑ Kultural antropologik yondashuv-gastronomik ananalar va taomlar orqali mintaqa madaniyati o'rganiladi.

❑ Turizmshunoslik yondashuvi- gastronomik turizmni rivojlantirish strategiyasi va sayyohlar ehtiyojlarini tahlil qiladi.

❑ Ekoturizm va agroturizm bilan integratsiya-mahalliy oziq –ovqat resurslarini va qishloq turizmini gastronomik turizm bilan bog'lash lozim.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Buxoro gastronomik turizmi chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u shahar madaniy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy taomlar, mehmondo'stlik ananalari va tarixiy muhit gastronomik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Buxoro gastronomik turizmi nafaqat mintaqaning madaniy merosini aks ettiradi, balki iqtisodiy turizm salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarixiy va nazariy asoslarni o'rganish orqali quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

❑ Buxoro gastronomik turizm madaniy va tarixiy merosga asoslangan

❑ Gastronomik turizm hududiy iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Kelgusida ilmiy tadqiqot ishimda ilmiy yondashuvlar asosida Buxoro gastronomik turizmining innovatsion usullarini va global maydondagi raqobatbardoshligini o'rganishda qaratgan holda davom ettiraman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Jumayev The Gastronomic Turizm in Uzbekistan; Past and Present Historu. Central Asian Jurnal of Innovations on TurizmManagement and Finance 2022.

2. M.Ro'ziyeva Buxoro viloyatida gastronomic va agroturizm imkoniyatlari tahlili. Inter Jurnal, 2020



3. A.Yo'ldoshev ,M.Yo'lchiyeva O'zbekiston gastronomik turizmi : taomlar ortidagi tarix.Zenodo,2021
4. S.Fayziyeva, S.Ro'ziyev Opportunities to Develop Gastronomic Turizm in Uzbekistan. Central Asian Jurnal of Innovations on Turizm Management and Finance.2021
5. Z.Rakhimov, M.Doniyorova M.Umarova Gastronomic Turizm as a Factor of Attractiveness of the Tourist Destination of Uzbekistan.OAJournals, 2022
6. Tulkinovna M. R., Ugli Z. S. T. Innovative and Traditional Ways of Developing Gastronomic Tourism in Uzbekistan //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – T. 4. – №. 2. – С. 116-120.
7. Рузиева М. Т., Таджиева С. У. Роль гастрономических сувениров в туризме //Редакционная коллегия. – С. 207.
8. Ханников Н. Описание Бухарского ханства. -СПб, 1843. – С.121-124, 129,134,137.